


94. Murakkab masalalar yechish

murakkab ifodalar
amallar tartibi



1. Qulay usul bilan hisoblang.

$$3 + 4 + 6$$

$$5 + 18 + 5$$

$$72 + 3 + 8$$

$$7 + 8 + 3$$

$$9 + 13 + 1$$

$$69 + 4 + 6$$



2. Ochiq darsda uch nafar o'quvchi so'zga chiqishi kerak.
Birinchi o'quvchi she'rni 3 minut, ikkinchi o'quvchi 2 minut,
uchinchchi o'quvchi 4 minut davomida o'qidi. Ular necha
minut o'qishgan?



3. Hisoblang.

$$(17 + 21) - 18$$

$$(43 - 21) + 57$$

$$54 - (28 - 27)$$


$$31 + (52 - 41)$$

$$(73 - 11) + 21$$

$$58 + (27 - 17)$$




4. PAXTA, SODDA va DASTA so‘zlaridagi bir xil harflar bir xil shakllar bilan almashtirildi. Shu so‘zlarning yashiringan rasmlarini ko‘rsating.



Mantiqiy masalalar shunday masalalarki,
ular hisoblash yo‘li bilan emas,
balki fikrlash orqali yechiladi.



5. Kvadrat va doiralarni chizishni shunday davom ettiringki,
kvadratlar doiralardan 2 ta ortiq, doiralar uchburchaklardan
1 ta kam bo‘lsin.



6. Qizil rangli to‘g’ri chiziq chizing. Shu to‘g’ri chiziq bilan kesishishmaydigan ko‘k rangli yopiq egri chiziq chizing.

